

DALACHOY O`SIMLIGINING MORFOLOGIYASI, KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBYOTDA QO`LLANILISHI

Sayramov Fayzullo Baratjon o`g`li
Ilyosjonova Nafosatxon Ilhomjon qizi
FarDU, Agrar qo`shma fakulteti talabalari.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dalachoy o`simligining morfologiyasi, tarqalish ekologiyasi, agrotexnik tadbirlar, xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati, tibbiyotda va xalq tabobatida qo`llanilishi, kimyoviy tarkibi va o`simlikdan foydalanish to`g`risida tavsiyalar yoritib berilgan. Xozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sugorilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tuganmas manbadir. Xalq tabobatining bu soxadagi qimmat, tutgan orni bebahodir. Buning uchun misol tariqasida hozirgi zamon tibbiyotida qollaniladigan shifobaxsh osimliklarni kopchiligi oz vaqtida xalq tabobati dorivor vositalar xazinasidan olinganligini yoki xozirgi zamon ilmiy tibbiyotining ozi xalq tabobati asosida taraqqiy etganini eslash kifoyadir.*

Kalit so`zlar: *dalachoy, giperitsin, flavonoidlar giperozid, rutin, kversitrin va kversitin, nikotin kislotasi, seril spirti, oshlovchi moddalar, holin, karotin, vitaminlar S va RR, alkaloidlar va fitonsidlar*

Dalachoy o`simligi Lamiaceae oilasiga mansub bo`lib, ko`p yillik, bo`yi 30—100 sm ga yetadigan o`t o`simlik. Ildizpoyasi va ildizi sershox. Poyasi bir nechta, tik o`suvchi, silliq, tuksiz, qirrali bo`lib, yuqori qismi qarama-qarshi shoxlangan. Bargi oddiy, cho`ziq — tuxumsimon, tekis qirrali bo`lib, poyada bandsiz qarama-qarshi joylashgan. Gullari tillasariq rangda, besh bo`lakli, qalqonsimon ro`vakka to`plangan. Mevasi — uch xonali, ko`p urug`li, pishganda ochiladigan ko`sakcha. Urug`I mayda, cho`zinchoq va chuqurchali bo`lib, qo`ng`irrangga bo`yalgan. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda yetiladi.

O`simlikning tarqalishi. Farg`ona, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining tog` etaklaridan to o`rta qismigacha uchraydi.

Agrotexnik tadbirlar. Iyul-avgust oylarida dalachoy urug`i yig`ib olinadi. Urug` terib bo`lgunga qadar, yer tayyor holga keltirilishi kerak, chunki urug` terib bo`linishi bilanoq maydonga ekiladi. Och, unumsiz bo`z tuproqli yerlarning har gektariga 50 tonnadan go`ng va 100 kg.gacha fosfor solinadi. Avgust-sentyabr oylarida dala 25-30 sm chuqurlikda haydaladi. Dala molalanib, tekislanadi. Sabzavot ekiladigan uskunada gektariga 7-9 kg hisobiga urug` ekiladi. Urug` bir tekisda tushishi uchun unga 1/5 miqdorida qum aralastiriladi va 0,5 sm.gacha chuqurlikda ekiladi. Shundan keyin ekilgan yerni g`altak yordamida bir oz zichlash kerak. Maysa unganda, lekin yog`in-sochinsiz vaqtda, urug` ekish uskunaga okuchnik tirkab ham egat olinadi. Singdirib sug`oriladi, aks holda ekin butunlay yuvilib ketishi mumkin. O`simlik erta bahorda unib chiqadi. Doimiy ravishda begona o`tlardan tozalanib turiladi. Shuning uchun har ikki marta sug`orishdan keyin yer

yumshatilib, o‘toq qilinadi, ekin zich bo‘lsa yagonalanadi. Birinchi yili mavsum davomida 8 martagacha, keyingi yillarda 5-6 martagacha sug‘oriladi. Hosildorlik gektar hisobiga 10-12 sentnerni tashkil etadi.

Xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati. O‘simlikning xom-ashyosi yalpi gullash davrida (iyun oxiri va iyul boshlarida) tayyorlanadi. Yig‘ilgan mahsulotni yaxshi havo aylanadigan angar yoki ayvonda, qog‘oz yoki mato ustida 5-10 sm qalinlikda yoyib, har zamon ag‘darilib turiladi. O‘simlikni butunligicha qoplarga 15 kg.dan oshirmasdan, maydalanganini 25 kg solish mumkin. Qadoqlashdan oldin xom-ashyoga qo‘shimcha ishlov beriladi: yanchib, dag‘al poyalari ajratiladi. Quruq, havo yaxshi aylanadigan xonalarda saqlanadi. Saqlanish muddati 3 yil. DF XI, 2-soniga muvofiq, yanchilmagan xom-ashyoning namligi 13% dan oshmasligi kerak, flavonoidlarning yig‘indisi rutinga nisbatan hisoblanganda, 1,5% kam bo‘lmasligi, mog‘or va chirishlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Tibbiyotda qo‘llanilishi va kimyoviy tarkibi. O‘simlikdan ko‘p davlatlarning xalq tabobatida qo‘llaniladi.

O‘simlik damlamasi burishtiruvchi, qon oqishini to‘xtatuvchi, shamollashga qarshi, og‘riqsizlantiruvchi, antiseptik vosita sifatida, turli yaralarni bitkazuvchi, siydik va safro haydovchi, shuningdek, ishtaha ochuvchi, to‘qimalarni tiklovchi, asab tizimini tinchlantiruvchi xususiyatga ega.

O‘simlik damlamasi oshqozon-ichak kasalliklarida (ich qotishida, ich ketganda), jigar, yurak, sistit kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Shuningdek, bosh va boshqa asab kasalliklarida tinchlantiruvchi va og‘riqsizlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Nemis xalq tibbiyotida o‘simlikning damlamasi har xil oshqozon-ichak kasalliklarida, suvchechak, jigar, buyrak, revmatizm, gemorroy va bosh og‘rig‘ida, uyqusizlikda ishlatiladi. Spirtli damlamasidan revmatik kasalliklarda tomdirib ichiriladi.

Yanchilgan yangi barglari yaralarga qo‘yilganda, ularning tez bitishiga olib keladi. Spirtli damlamasi suv bilan aralashtirilib, og‘iz chayilganda, noxush hidlar yo‘qoladi. Toza damlamasi milklarni qotirish uchun surtiladi.

O‘simlikdan tayyorlangan yangi preparat – imanin kuyganda va boshqa teri kasalliklarida, yara kasalligi va yiringli yaralarda, kuchli shamollashni davolashda ishlatiladi. O‘simlik gullaridan matolarni bo‘yashda, suvli damlamasi sariq rangni, qaynatilgani konsentratsiyasiga qarab, pushti hamda qizil rangni beradi. Qon bosimini bir muncha oshiradi. Shu sababli, gipertonik kasalliklarga o‘simlikni boshqa o‘simliklar aralashmasi bilan foydalanish tavsiya etiladi.

Qo‘llash usullari.

1) 10 g quruq o‘simlikni 1 stakan qaynatilgan suvga damlab qo‘yiladi. Bir osh qoshiq‘ida 2-4 mahal kun davomida ovqatdan keyin ichiladi.

2) 15-20 g quruq o‘simlikni 0,5 l spirt yoki aroqqa solinadi. Kun davomida ovqatdan keyin 3 mahal 30 tomchidan suv bilan ichiladi.

3) O‘tning spirtli nastoykasidan 20-30 tomchi 0,5 stakan suvga qo‘shiladi. Og‘izdan noxush hidni yo‘qotish uchun chayiladi.

Damlamani tashqariga ishlatish uchun konsentrlangan holatda tayyorlanadi (2-3 osh qoshiqdagi o‘t 2 stakan suvda qaynatiladi).

O'simlik tarkibida bo'yoqli modda giperitsin, flavonoidlar giperozid, rutin, kversitrin va kversitin, nikotin kislotasi, seril spirti, oshlovchi moddalar, kam miqdorda holin, karotin (55 mg% gacha), vitaminlar S va RR, alkaloidlar va fitonsidlar mavjud. O'simlik o'ziga xos xushbo'y hidga, taxir ta'mga ega, zaharli.

Tavsiyalar. O'zbekistonning tog'li hududlarida yetarli darajada tabiiy zahirasi mavjud. Bundan tashqari tuproqning barcha tiplarida yetishtirish mumkin. Faqatgina sho'r tuproqlarda yetishtirib bo'lmaydi.

Xulosa: Xozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sugorilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tunganmas manbadir. Xalq tabobatining bu soxadagi qimmat, tutgan orni bebahodir. Buning uchun misol tariqasida hozirgi zamon tibbiyotida qollaniladigan shifobaxsh osimliklarni kopchiligi oz vaqtida xalq tabobati dorivor vositalar xazinasidan olinganligini yoki xozirgi zamon ilmiy tibbiyotining ozi xalq tabobati asosida taraqqiy etganini eslash kifoyadir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. —Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyev M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Nabiev M. LechebnyedaryChatkala –Toshkent, 2004.
6. Oripov.R.O, Xalilov.N.X. O'simlikshunoslik –Toshkent, 2007.
7. Prator.O`P, Nabiyev.M.M. O`zbekiston yuksak o`simliklarning zamonaviy tizimi –Toshkent, 2007.
8. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.
9. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.
10. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY (LAMIACEAE). Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 183-190.
11. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIASEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(13), 64-68.
12. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). LIFE FORMS, MORPHOLOGY AND DISTRIBUTION OF REPRESENTATIVES OF LAMIACEAE FAMILY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 288-295.

13. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 85-89.
14. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). ПРИРОДНЫЕ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ТРАВЯНИСТЫЕ РАСТЕНИЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE И ИХ ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА. Scientific Impulse, 1(5), 1048-1055.
15. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE LAMIACEAE FAMILY. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(6), 104-108.
16. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). LIFE FORMS, MORPHOLOGY AND DISTRIBUTION OF REPRESENTATIVES OF LAMIACEAE FAMILY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 288-295.
17. Baratjon ogli, S. F. (2023). Morphology, Chemical Composition and Medical Use of Ocimum Plant. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 13, 5-8.
18. Yusupova, Z. A., Baratjon ogli, S. F., & Abduqunduzovna, M. Z. (2023). Medicinal Plants Growing in Our Republic Medicinal Properties. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 15, 5-7.